



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	

PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNING O'SMIRLAR AKADEMIK SAVODXONLIGIGA TA'SIRI

Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

University of Business and Science, pedagogika va psixologiya kafedrası

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligini rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda psixologik savodxonlikning tarkibiy komponentlari, jumladan, emotsional o'zini o'zi boshqarish, stressga chidamlilik, refleksiya, kommunikativ kompetentlik va motivatsion barqarorlikning akademik muvaffaqiyatga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, o'smirlarda psixologik savodxonlikni rivojlantirish orqali o'quv faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari psixologik savodxonlik va akademik savodxonlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: psixologik savodxonlik, akademik savodxonlik, o'smirlar, emotsional intellekt, o'quv motivatsiyasi, refleksiya, stressga chidamlilik, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of psychological literacy in the development of academic literacy among adolescents. The study highlights the impact of the components of psychological literacy, including emotional self-regulation, stress resilience, reflection, communicative competence, and motivational stability, on academic success. It also analyzes the possibilities of increasing the effectiveness of learning activities by developing psychological literacy among adolescents. The results of the study indicate a positive relationship between psychological literacy and academic literacy.

Key words: psychological literacy, academic literacy, adolescents, emotional intelligence, learning motivation, reflection, stress resilience, educational effectiveness.

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический анализ роли психологической грамотности в развитии академической грамотности у подростков. В исследовании освещается влияние компонентов психологической грамотности, включая эмоциональную саморегуляцию, стрессоустойчивость, рефлексию, коммуникативную компетентность и мотивационную стабильность, на академическую успеваемость. Также анализируются возможности повышения эффективности учебной деятельности путем развития психологической грамотности у подростков. Результаты исследования указывают на наличие положительной взаимосвязи между психологической грамотностью и академической грамотностью.

Ключевые слова: психологическая грамотность, академическая грамотность, подростки, эмоциональный интеллект, мотивация к обучению, рефлексия, стрессоустойчивость, эффективность обучения.

KIRISH

Globalashuv va axborotlashuv sharoitida zamonaviy ta'lim tizimi oldiga nafaqat bilimli, balki psixologik jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi va hayotiy vaziyatlarga moslasha oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'smirlarning akademik savodxonligini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning psixologik savodxonligini shakllantirish ham muhim pedagogik va psixologik masalaga aylanmoqda.

So'nggi yillarda xalqaro tadqiqotlar akademik muvaffaqiyat faqat intellektual salohiyat bilan emas, balki shaxsning emotsional va psixologik kompetensiyalari bilan ham bog'liqligini ko'rsatmoqda. Xususan, OECD tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari va psixologik farovonligi akademik natijalarning muhim prediktori sifatida e'tirof etiladi. O'smirlilik davri shaxs rivojlanishining murakkab va mas'uliyatli bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarda o'zini anglash, mustaqillik, shaxsiy identifikatsiya va kasbiy yo'nalishni tanlash jarayonlari faol kechadi. Mazkur jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan o'smirlarning psixologik savodxonlik darajasiga bog'liq.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik savodxonlik zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida shaxsning o'z psixik jarayonlari, hissiy holatlari va xulq-atvor xususiyatlarini anglash hamda ularni ongli ravishda boshqarish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar tizimi sifatida talqin etiladi. Bugungi globallashtiruv va axborotlashuv sharoitida psixologik savodxonlik shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, ruhiy salomatligini saqlashi va samarali faoliyat yuritishining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, o'smirlik davrida psixologik savodxonlikning rivojlanganligi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashi, stressli vaziyatlarni samarali yengib o'tishi va ta'lim faoliyatida yuqori natijalarga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik savodxonlik tushunchasining ilmiy asoslari kognitiv, gumanistik va ijtimoiy psixologiya nazariyalariga borib taqaladi. Mazkur yondashuvlarga ko'ra, inson nafaqat bilimlarni o'zlashtiruvchi subyekt, balki o'z ruhiy holatini anglay oladigan, hissiyotlarini boshqara oladigan va ijtimoiy munosabatlarda ongli ishtirok etadigan faol shaxsdir. Shu sababli psixologik savodxonlik faqat nazariy bilimlar yig'indisi emas, balki psixologik bilimlarni kundalik hayotda amaliy qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Amerikalik psixolog Robert Sternberg psixologik savodxonlikni insonning kundalik hayotiy vaziyatlarda psixologik bilimlardan samarali foydalanish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, shaxs o'zining hissiy holatini, motivlarini va xulq-atvor sabablarini tushuna olsa, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sternberg psixologik savodxonlikni amaliy intellektning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning inson muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida psixologik savodxonlik o'quvchining o'z o'quv faoliyatini boshqarishi, qiyinchiliklarni yengishi va motivatsiyasini saqlab qolishida muhim ahamiyatga ega.

Psixologik savodxonlikning nazariy asoslarini tushuntirishda emotsional intellekt konsepsiyasi ham alohida o'rin tutadi. Ushbu nazariyaning asoschisi sifatida tanilgan Daniel Goleman inson muvaffaqiyatining muhim omili sifatida emotsional kompetensiyalarni ko'rsatadi. Olimning ta'kidlashicha, shaxsning o'z hissiyotlarini anglay olishi, ularni nazorat qilishi, boshqalarning emotsiyalarini tushunishi va samarali muloqot o'rnatishi nafaqat kasbiy faoliyatda, balki ta'lim jarayonida ham yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi. Golemanning tadqiqotlari emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarning stressli vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ymasligi, o'quv motivatsiyasini saqlab qolishi va akademik topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishini ko'rsatadi.

Psixologik savodxonlikning tarkibiy tuzilmasi bir necha o'zaro bog'liq komponentlardan iborat. Birinchi komponent – o'zini anglash bo'lib, u shaxsning o'z hissiyotlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini tushunishini nazarda tutadi. O'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar o'z kuchli va zaif tomonlarini biladilar, o'z faoliyatini real baholay oladilar hamda muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini to'g'ri tahlil qiladilar. Ikkinchi muhim komponent emotsional o'zini boshqarish hisoblanadi. Bu shaxsning stress, xavotir, qo'rquv yoki g'azab kabi hissiy holatlarini nazorat qila olish qobiliyatini ifodalaydi.

O'smirlik davrida emotsional beqarorlik ko'pincha o'quv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Psixologik savodxonligi rivojlangan o'quvchilar esa salbiy emotsiyalarni konstruktiv yo'naltirish va o'quv faoliyatiga e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Psixologik savodxonlik tarkibida refleksivlik ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Refleksiya shaxsning o'z faoliyatini, xatti-harakatlarini va ichki kechinmalarini tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. Refleksiv ko'nikmalari rivojlangan o'quvchilar o'z xatolaridan to'g'ri xulosa chiqaradilar, faoliyat natijalarini baholaydilar va kelgusidagi harakatlarini rejalashtira oladilar. Bu esa akademik savodxonlikning muhim tarkibiy qismi hisoblangan mustaqil o'qish va o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Psixologik savodxonlikning yana bir muhim tarkibiy qismi stressga chidamlilikdir. Zamonaviy ta'lim muhiti o'quvchilardan katta intellektual va emotsional zo'riqishni talab qiladi. Nazorat ishlari, imtihonlar, tengdoshlar bilan munosabatlar va kelajak bilan bog'liq tashvishlar o'smirlarda stress holatini yuzaga keltirishi mumkin. Stressga chidamlilikning rivojlanganligi esa o'quvchilarga murakkab vaziyatlarda o'z faoliyatini samarali davom ettirish imkonini beradi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetentlik va ijtimoiy moslashuvchanlik ham psixologik savodxonlikning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Mazkur sifatlar o'quvchilarning tengdoshlari, o'qituvchilari va ota-onalari bilan samarali munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi.

Ijroiya ijtimoiy munosabatlar esa o'quv faoliyati samaradorligini oshirish, psixologik farovonlikni ta'minlash va akademik muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, psixologik savodxonlik shaxsning o'zini anglash, emotsional boshqaruv, refleksiya, stressga chidamlilik va kommunikativ kompetentlik kabi sifatlarini birlashtiruvchi murakkab integrativ tuzilma hisoblanadi. Mazkur sifatlarning rivojlanganligi o'smirlarning akademik faoliyatini samarali tashkil etish, o'quv motivatsiyasini saqlash va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun muhim psixologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois psixologik savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy ta'lim tizimida akademik savodxonlik o'quvchilarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va intellektual rivojlanishining muhim mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. Akademik savodxonlik deganda shaxsning bilimlarni mustaqil ravishda izlash, tanlash, tahlil qilish, tizimlashtirish, tanqidiy baholash hamda amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati tushuniladi. Mazkur tushuncha faqat o'quv materiallarini o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki o'quvchining mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini rejalashtira olishi va ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini ham qamrab oladi.

So'nggi yillarda akademik savodxonlik ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, xalqaro baholash dasturlari – OECD tomonidan amalga oshirilayotgan PISA tadqiqotlari o'quvchilarning bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini baholashga qaratilgan. Bu esa akademik savodxonlikning zamonaviy talqini faqat bilim hajmi bilan emas, balki bilimlarni amaliyotda qo'llash, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Psixologik nuqtayi nazardan akademik savodxonlik o'quvchining bilish jarayonlari, motivatsion sohasi, emotsional barqarorligi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq. O'smirlik davrida akademik faoliyatning samaradorligi nafaqat intellektual salohiyat, balki shaxsning psixologik tayyorgarligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli akademik savodxonlikni rivojlantirishda psixologik omillarning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quv motivatsiyasi – akademik savodxonlikning asosiy omili. Akademik savodxonlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri o'quv motivatsiyasi hisoblanadi. Motivatsiya o'quvchini bilim olishga undovchi ichki va tashqi omillar tizimini ifodalaydi. Psixologik tadqiqotlarda motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilarning o'quv faoliyatida ko'proq faollik ko'rsatishi, murakkab topshiriqlardan qochmasligi va yuqori natijalarga erishishi aniqlangan. O'smirlik davrida ichki motivatsiyaning shakllanishi ayniqsa muhimdir. Ichki motivatsiya mavjud bo'lgan o'quvchilar bilim olishni majburiyat emas, balki shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida qabul qiladilar. Natijada ularda akademik savodxonlikning barcha komponentlari samarali rivojlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi. Zamonaviy ta'lim sharoitida mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi akademik savodxonlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'lim o'quvchining axborotni izlash, saralash, o'rganish va amaliyotda qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi. Raqamli texnologiyalar rivojlangan bugungi davrda o'quvchi katta hajmdagi axborot oqimi bilan ishlashga majbur bo'lmoqda. Shu sababli mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi akademik muvaffaqiyatning muhim omiliga aylanmoqda. Psixologik jihatdan mustaqil ta'lim olish o'zini boshqarish, mas'uliyat, refleksiya va intizom kabi sifatning rivojlanganligini talab etadi. Ushbu sifatlar esa psixologik savodxonlik bilan bevosita bog'liq.

Tanqidiy fikrlashning ahamiyati. Akademik savodxonlikning yana bir muhim komponenti tanqidiy fikrlash hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash shaxsning axborotni tahlil qilish, solishtirish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. O'smirlik davrida tanqidiy fikrlashning rivojlanishi o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni hal etishi va kreativ yondashuvlarni shakllantirishiga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlashi rivojlangan o'quvchilar tayyor ma'lumotlarni passiv qabul qilmaydi, balki ularni tahlil qiladi, savollar beradi va o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Bu esa akademik savodxonlikning yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda akademik savodxonlikning ajralmas qismi axborot bilan ishlash kompetensiyasi hisoblanadi. O'quvchi kerakli ma'lumotni topish, uning ishonchligini baholash, tahlil qilish va undan samarali foydalanishni bilishi lozim. Axborot bilan ishlash ko'nikmalari rivojlangan o'smirlar o'quv faoliyatida mustaqilroq va samaraliroq bo'ladilar.

O'quv faoliyatini rejalashtirish va boshqarish. Akademik savodxonlik o'quvchining o'z faoliyatini maqsadli tashkil eta olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Rejalashtirish vaqtini to'g'ri taqsimlash, ustuvor vazifalarni belgilash va natijalarni prognoz qilish imkonini beradi. O'z faoliyatini samarali rejalashtira oladigan o'quvchilar odatda akademik jihatdan muvaffaqiyatli bo'ladilar.

O'zini nazorat qilish va baholash. Metakognitiv ko'nikmalar, ya'ni o'z faoliyatini nazorat qilish va baholash akademik savodxonlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchi o'z bilim darajasini baholay olishi, xatolarini aniqlashi va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishi zarur. Bu esa akademik muvaffaqiyatni ta'minlovchi muhim psixologik mexanizm hisoblanadi.

Demak, akademik savodxonlik o'smirning bilimlarni egallash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llashga oid integrativ kompetensiyasi hisoblanadi. Uning rivojlanishi o'quv motivatsiyasi, mustaqil ta'lim olish, tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash, rejalashtirish va refleksiv nazorat kabi omillarga bog'liq. Psixologik savodxonlik esa mazkur jarayonlarning samarali kechishini ta'minlovchi psixologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli o'smirlarda psixologik savodxonlikni rivojlantirish akademik savodxonlikni oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.



1-jadval: Akademik savodxonlikning tarkibiy komponentlari va psixologik tavsifi

Komponent	Mazmuni	Psixologik ahamiyati
O'quv motivatsiyasi	Bilim olishga intilish	Faollik va akademik muvaffaqiyatni ta'minlaydi
Mustaqil ta'lim olish	Mustaqil bilim egallash	Mas'uliyat va o'zini boshqarishni rivojlantiradi
Tanqidiy fikrlash	Axborotni tahlil qilish va baholash	Mustaqil fikrlashni shakllantiradi
Axborot bilan ishlash	Ma'lumotlarni izlash va saralash	Kognitiv faollikni oshiradi
Rejalashtirish	Faoliyatni maqsadli tashkil etish	Vaqtini boshqarish ko'nikmasini rivojlantiradi
O'zini nazorat qilish	Natijalarni baholash va tahlil qilish	Refleksivlik va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi

2-jadval: Psixologik savodxonlik va akademik savodxonlik o'rtasidagi bog'liqlik

Psixologik savodxonlik komponentlari	Akademik savodxonlikka ta'siri
Emotsional o'zini boshqarish	Imtixon va nazorat vaziyatlarida stressni kamaytiradi
O'zini anglash	Real maqsadlar qo'yish va imkoniyatlarni baholashga yordam beradi
Refleksivlik	Xatolarni tahlil qilish va o'zlashtirish sifatini oshiradi
Stressga chidamlilik	Murakkab vaziyatlarda akademik faollikni saqlaydi
Kommunikativ kompetentlik	O'qituvchi va tengdoshlar bilan samarali hamkorlikni ta'minlaydi
Motivatsion barqarorlik	O'quv faoliyatiga barqaror qiziqishni shakllantiradi

Psixologik savodxonlik va akademik savodxonlik o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, u o'quvchining ta'lim faoliyatini samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, akademik muvaffaqiyat nafaqat intellektual salohiyat yoki bilim darajasi bilan, balki shaxsning emotsional barqarorligi, motivatsion yo'nalganligi, refleksiv qobiliyatlari va kommunikativ kompetentligi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, psixologik savodxonlik akademik savodxonlikning rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, psixologik savodxonlik o'quvchilarning emotsional holatini boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'smirlik davri psixofiziologik va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadigan murakkab rivojlanish bosqichi bo'lib, ushbu davrda o'quvchilar turli stressli vaziyatlarga tez-tez duch keladilar. Nazorat ishlari, imtixonlar, baholash jarayonlari, ota-onalar kutayotgan natijalar hamda tengdoshlar bilan raqobat o'smirlarda emotsional zo'riqish va xavotirni yuzaga keltirishi mumkin. Psixologik savodxonligi rivojlangan o'quvchilar esa o'z hissiyotlarini anglaydilar, stress manbalarini to'g'ri baholaydilar va salbiy emotsiyalarni konstruktiv tarzda boshqarishga qodir bo'ladilar. Natijada ular qiyin vaziyatlarda ham o'z diqqatini o'quv faoliyatiga qaratish, vazifalarni izchil bajarish va emotsional barqarorlikni saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa akademik faoliyat samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Psixologik savodxonlikning akademik savodxonlikka ta'sir etuvchi muhim mexanizmlaridan yana biri o'quv motivatsiyasini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liqdir. Psixologik jihatdan savodli o'quvchilar o'z maqsadlarini aniq belgilay oladilar, o'z imkoniyatlarini real baholaydilar hamda o'quv faoliyatining mazmunini chuqurroq anglaydilar. Bunday o'quvchilarda ichki motivatsiya ustunlik qiladi, ya'ni ular bilim olishni tashqi rag'bat yoki majburiyat tufayli emas, balki shaxsiy rivojlanish va muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida qabul qiladilar. O'z navbatida, ichki motivatsiyaning rivojlanganligi akademik topshiriqlarga nisbatan mas'uliyatli munosabatni, mustaqil izlanishni va yuqori natijalarga intilishni shakllantiradi. Shu sababli psixologik savodxonlik o'quv faoliyatining motivatsion asoslarini mustahkamlash orqali akademik savodxonlikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Refleksiv qobiliyatlarning rivojlanganligi ham psixologik savodxonlikning akademik muvaffaqiyatga ta'sir etuvchi muhim omillaridan biridir. Refleksiya o'quvchining o'z faoliyatini, bilimlarini va xatti-harakatlarini tahlil qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Psixologik savodxonligi yuqori bo'lgan o'smirlar o'z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini anglashga, xatolarini tahlil qilishga hamda ulardan to'g'ri xulosa chiqarishga moyil bo'ladilar. Ular o'zlashtirishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Natijada o'quv faoliyati yanada ongli va maqsadli tus oladi. Refleksiv tahlil o'quvchining mustaqil fikrlashi, o'zini nazorat qilishi va o'z-o'zini rivojlantirishiga xizmat qiluvchi muhim psixologik mexanizm sifatida akademik savodxonlikning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Psixologik savodxonlikning akademik savodxonlikka ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim jihati kommunikativ kompetentlik bilan bog'liqdir. Ta'lim jarayoni mohiyatan ijtimoiy faoliyat bo'lib, unda o'quvchi o'qituv-

chilar, tengdoshlari va boshqa ta'lim subyektlari bilan muntazam muloqotda bo'ladi. Psixologik savodxonligi rivojlangan o'quvchilar samarali muloqot qilish, fikrlarini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash va hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bu esa guruhli loyihalar, jamoaviy topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etishda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Shuningdek, kommunikativ kompetentlik o'quvchining pedagoglar bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatishi va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Psixologik savodxonlik o'quvchilarda stressga chidamlilik va psixologik barqarorlikni rivojlantirish orqali ham akademik savodxonlikka ta'sir ko'rsatadi. O'quv faoliyati davomida uchraydigan murakkab vazifalar, yuqori talablar va baholash jarayonlari ayrim hollarda emotsional zo'riqishni yuzaga keltiradi. Psixologik savodxonligi rivojlangan o'quvchilar bunday vaziyatlarni tahdid sifatida emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladilar. Natijada ular qiyinchiliklardan qochmaydilar, aksincha, ularni yengishga intiladilar. Bu esa akademik qat'iyatlilik va muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, psixologik savodxonlik akademik savodxonlikka emotsional boshqaruv, motivatsion barqarorlik, refleksiv tahlil, kommunikativ kompetentlik va stressga chidamlilik kabi mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Mazkur mexanizmlarning rivojlanganligi o'quvchilarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishi, bilimlarni chuqur o'zlashtirishi va akademik muvaffaqiyatga erishishida muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli umumta'lim maktablarida psixologik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-ma'rifiy dasturlarni joriy etish o'smirlarning akademik savodxonligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullayev, M., & Dexqonov, T. (2025). Oila psixologiyasi: farzand tarbiyasida emotsional intellektning ahamiyati. // Молодые ученые, 3(24), 98-101.
2. Fayzullayev, M., Xamraqulov, M., & Lutfidinov, M. (2025). O'smirlik davrida kognitiv rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar.// Наука и технология в современном мире, 4(17), 22-25.
3. Mirzamurodovich, F. M. (2024, October). O'smirlarda psixologik savodxonlikni aniqlashda korrelatsion tahlil.// In Russian-Uzbekistan Conference (Vol. 1, No. 1).
4. Fayzullayev, M. (2023). O'smirlarda psixologik savodxonlik konstruksiyalari.// Академические исследования в современной науке, 2(19), 129-133.
5. Mirzamurodovich, F. M. (2025). Psychological Literacy In Adolescents As A Factor Of Socialization.// Shokh Library, 1(12).
6. Mirzamurodovich, F. M. (2024, October). O'smirlarda psixologik savodxonlikni aniqlashda korrelatsion tahlil.// In Russian-Uzbekistan Conference (Vol. 1, No. 1).
7. Mirzamurodovich, F. M. (2023). Concepts Of Formation And Development Of Psychological Literacy In Continuous Education. //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 495-497.
8. Fayzullayev, M. M. (2023). Psychological Literacy And Its Assessment In Youth.// Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 170-172.
9. Fayzullayev, M. (2024). Introducing Psychological Literacy.// Академические исследования в современной науке, 3(22), 32-35.
10. Fayzullayev, M. M. (2022). Discrimination Is A Violation Of Human Rights And Is A Problem For Students, Especially In Times Of Psychological Change.// International Conference On Learning And Teaching, 1(4), 429-431.
11. Fayzullayev, M. (2025). Psixologik maslahat va kouching fanining hozirgi kundagi o'rni va dolzarbligi.// Наука и инновация, 3(24), 175-178.
12. Fayzullayev, M. (2025). Psixologik maslahat va kouching fanining hozirgi kundagi o'rni va dolzarbligi.// Наука и инновация, 3(24), 175-178.
13. Fayzullayev, M., Xamraqulov, M., & Lutfidinov, M. (2025). O'smirlik davrida kognitiv rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar. //Наука и технология в современном мире, 4(17), 22-25.
14. Mirzamurodovich, F. M. (2026, January). The Impact Of Psychological Literacy On Adolescent Intellectual Development. //In London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI), 3(2), 458-462.
15. Mirzamurodovich, F. M. (2026). Stress Tolerance Is A Personal Factor That Determines The Level Of Psychological Literacy. //Shokh Articles Library, 1(1), 375-381.
16. Mirzamurodovich, F. M. (2026). Teacher at the Department of World Languages of Kokand University. Shokh Articles Library, 1(1), 348-354.
17. Anvarovna, A. J. S. Ingliz tilini o'rgatishda loyiha ishini tashkil qilishning afzalliklari.
18. Anvarovna, A. S. Empirical Foundations Of The Study Of Future English Teachers' Social Intelligence.// Pedagogika, 23.
19. Ataxo'jayeva Shaxlo Anvarovna, & Ibrohimova Shahina Akmaljon qizi. (2025). Ingliz tili o'qitish jarayonida ijobiy emotsiyalarning o'quv motivatsiyasiga ta'siri.// Ta'limda Raqamli Texnologiyalarni Tadbiiq Etishning Zamonaviy Tendensiyalari va Rivojlanish Omillari, 49(1), 51-58.
20. Anvarovna, A. J. S. (2024). Oliy ta'lim chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini shakllantirishdagi nazariy tahlil. //Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2(20), 150-158.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.